ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI




13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

№9
2025

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Elektron nashr. 184 sahifa,
2-sentyabr, 2025-yil.



**BOSH MUHARRIR:**
**Karimova E'zoza Gapirjanovna –** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Pedagogika fanlari doktori, professor

***TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI***

***Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik***
***Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik***
***Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor***
***Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor***
***Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)***
***Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)***
***Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)***
***Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)***
***Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)***
***Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)***
*Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent*
***Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor***
***G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)***
***Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti***
***Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor***
***Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent***
***Doniyorov S. M. –"Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)***
***Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent***
***Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori***
***Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)***
***Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari***
***Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)***



Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**
**Karimova E'zoza Gapirzhanovna –** Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

***EDITORIAL BOARD MEMBERS:***
***Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician***
***Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician***
***Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor***
***Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor***
***Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)***
***Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)***
***Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)***
***Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)***
***Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)***
***Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)***
**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**
***Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor***
***Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)***
***Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor***
***Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service***
***Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor***
***Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)***
***Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor***
***Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics***
***Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology***
***Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region***
***Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences***

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
• Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
• Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)
Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
• Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
• Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA CONTENTS СОДЕРЖАНИЕ

# MUNDARIJA

Maktabgacha ta'lim tashkiloti innovatsion faoliyatini rivojlantirish jarayoni ........ 14
Ibragimova Gulsanam Nematovna

Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim metodikasida qo'llanilishi va o'qituvchi kompetentligiga ta'siri ..... 22
Abduyev Sheroz

Boshlang'ich ta'limda "tabiatshunoslik" fanini raqamli platformalar orqali o'qitish metodikasini takomillashtirish: 5e modeli asosida dizayn, baholash va joriy etish ........ 25
Ahmadaliyev Shohruh Bahromjon o'g'li

Ingliz va rus leksikografiyasida o'zbek milliy taom nomlarining lingvistik tahlili ........ 30
Bobojonova Zarina Rashidovna

Rahbarlarda til bilish darajasi va hissiy intellekt (eq): o'zaro bog'liqlikni o'rganish ........ 34
Isaqulova Baxtigul Xo'jamovna

Frazeologizmlarni o'rgatishda matn asosida integratsiyalashgan dars modeli: xorijiy til o'rganuvchilar tajribasi ........ 38
Jumayeva Sadbarg Mirolimovna

O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari: rivojlangan davlatlar tajribasi tahlili ........ 42
Karimova Moxichehra Rixsibayevna

Rus va ingliz tillarida sharqona realiyalarning leksik-semantik tasnifi ........ 46
Kulmamatova Aziza Do'stmamat qizi

TRIZ metodikasi asosida texnokratik bolalar bilan ishlash tizimini takomillashtirish ........ 50
Orifjonova Mavludaxon Abduqaxxor qizi

Raqamli ta'lim muhitida pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish ........ 53
Raximberganova Munojat Muzaffar qizi

Structure of Social Conflict and Stages of its Development ........ 57
Zaynutdinova Shahnoza Yuldashevna

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy faoliyatini baholash va rag'batlantirish tizimini takomillashtirish ........ 60
Abduraxmonova Nigoraxon Akramali qizi

Expression of National Mental Characteristics in the Uzbek Lullaby ........ 64
Alimbayeva Shaxlo Tursunovna

Bo'lajak "texnologiya" fani o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda kreativ kompetentlikni rivojlantirish tizimining pedagogik zarurati ........ 69
Avazov G'oyibnazar Berdiyevich

Bo'lajak tarbiyachilarda integratsiyalashgan ta'lim faoliyatini rivojlantirish orqali kommunikativ salohiyatini shakllantirish ........ 72
Baratova Yulduz Asadullayevna

Umumta'lim maktablarida molekulyar fizikani o'qitishning hozirgi holati ........ 76
Boymirov Sherzod Tuxtayevich, Xudoynazarova Visola Musurmonqul qizi

Ingliz tilini o'qitishda talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini akt vositasida rivojlantirish ........ 80
Ergasheva Sevaraxon Ravshanjon qizi

Maktabgacha ta'lim pedagoglarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish istiqbollari ........ 84
O'rinova Feruzaxon O'ljayevna, Karimova Gulzodaxon Marufjon qizi

IIV litsey o'quvchilarining liderlik kompetensiyasini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari ........ 90
Gadoyeva Dildora Baxtiyorovna

Improving the System of Human Resource Capacity Management in Higher Education Institutions: Evidence from Uzbekistan ........ 98
Imomov I., Umirova D.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni mantiqiy va tanqidiy fikrlashga o'rgatishning zamonaviy usullari ........ 104
Iskandarova Munisa Bahodir qizi

Tarbiyachi-pedagoglarning emotsional kompetentsiyasini rivojlantirish ........ 107
Jovmirzayeva Nargiza Quvondiqovna

Maktabgacha ta'lim yoshdagi giperaktiv bolalarga ta'lim berishning pedagogik-psixologik usullari ............ 110
Jo'rayeva Nargiza Toirovna, Kamalova Sarvinoz

Blum taksonomiyasi asosida ilmiy kompetentlikni takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari ................ 113
Mustafayeva Nilufar Ulashovna

Maktabgacha yoshdagi ovoz buzulishiga ega bolalar bilan guruhli mashg'ulotlarni tashkil qilish ............... 117
Umida O'tbasarova Mexmanovna, Maksudbekova Xovvajon Xamidbek qizi

Bolalar jamoasida do'stona munosabatlarni shakllantirishda rivojlanish markazlarida loyiha asosida o'qitish texnologiyasidan foydalanish usullari ........ 121
Quronova Ismigul Xolmurod qizi

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda innovatsion metodlar orqali o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi ........ 126
Rustamova Davlatxon Toyirjon qizi

Oliy ta'limda tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishning innovatsion modellari ........ 131
Sanayeva Surayyo Bobonazarovna

"Tibbiy radiologiya" fanini o'qitishda pedagogik muloqot orqali tanqidiy operativ muloqotni o'stirishning o'ziga xos xususiyatlari ........ 139
Shukurova Sevara Ilhomovna

Improving High Jump Techniques ........ 143
Tajimbetov Anvar Tengelbayevich

Filologik va ijtimoiy-siyosiy fanlarda ta'lim jarayonining innovatsion metodlari ........ 146
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna

Понятие логического мышления и его особенности у младших школьников ........ 149
Ахмаджонова Нозима Нодиржон қизи

Интеграция психологии, обучения английскому языку, дошкольного образования и туризма: междисциплинарная модель формирующего опыта ........ 152
Омонуллаева Дилофуза Асадулла қизи

Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'yin faoliyatida ijtimoiy motivlarni shakllantirish usullari ........ 157
Abduvaxobova Nodira

Boshlang'ich ta'limda kognitiv faollikni rivojlantirishning afzalliklari ........ 160
Ismailova Nozima Umaraliyevna

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini matnni tahlil qilishga o'rgatishda zamonaviy yondashuvlarning ahamiyati ........ 164
Utanbayeva Dildora Abdixadirovna

Dorivor o'simliklar kursini o'qitish metodikasini takomillashtirishda keys texnologiyalaridan foydalanish .... 168
Mirzaboyev Timur Bisenbay o'g'li

Oliy ta'lim talabalarida ijtimoiy-axloqiy kompetensiyani rivojlantirish: empirik tadqiqot natijalari ........ 171
To'raqulov Akbar Rustam o'g'li

Gerontotexnologiya ijtimoiy-pedagogik innovatsiya sifatida ........ 175
Temirova Muyassar Abdukarim qizi

O'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda Sharq mutafakkirlarining qarashlaridan foydalanish ........ 180
Raximova Surayyo Otabek qizi

# O'QUVCHILARNI MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASHDA SHARQ MUTAFAKKIRLARINING QARASHLARIDAN FOYDALANISH

Raximova Surayyo Otabek qizi
Qori Niyoziy nomidagi tarbiya pedagogikasi milliy instituti tayanch doktoranti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni e'zozlash, inson mohiyati, uning ruhiy kamoloti, yaxshilik va yomonlik muammosi, inson kamolotida ilmning o'rni hamda nafs tarbiyasi xususida so'z boradi. Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Jaloliddin Rumiy va boshqa allomalar insonning ma'naviy kamoloti, axloqiy fazilatlari, odob-axloq qoidalari, adolat va insoniylik kabi qadriyatlarni jamiyat taraqqiyoti uchun zaruriy omil sifatida ta'riflaganlari tahlil etilgan. Maqolaning maqsadi – Sharq mutafakkirlarining qarashlarida ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning ilmiy-falsafiy mazmunini tahlil qilish hamda ularning zamonaviy ta'lim va tarbiya tizimidagi ahamiyatini asoslab berishdir.

**Kalit so'zlar:** ma'naviy-axloqiy, qadriyatlar, halollik, milliy an'analar, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Jaloliddin Rumiy, Ahmad Yassaviy.

**Abstract:** This article discusses the reverence for spiritual and moral values, the essence of the human being, spiritual perfection, the problem of good and evil, the role of knowledge in human development, and the cultivation of morality. The views of thinkers such as Abu Nasr Farabi, Ibn Sina, Beruni, Yusuf Khos Khojib, Alisher Navoi, Jalaluddin Rumi, and others are analyzed, who described human spiritual perfection, moral qualities, ethical norms, justice, and humanism as essential factors for social progress. The purpose of the article is to analyze the scientific and philosophical content of spiritual and moral values in the works of Eastern thinkers and to substantiate their significance in the modern system of education and upbringing.

**Key words:** spiritual and moral, values, honesty, national traditions, Abu Nasr Farabi, Ibn Sina, Alisher Navoi, Jalaluddin Rumi, Ahmad Yassawi.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются вопросы почитания духовно-нравственных ценностей, сущности человека, его духовного совершенствования, проблемы добра и зла, роли науки в развитии личности и воспитания нравственности. Анализируются взгляды таких мыслителей, как Абу Наср Фараби, Ибн Сино, Бируни, Юсуф Хос Ходжиб, Алишер Навои, Джалолиддин Руми и других, которые трактовали духовное совершенство человека, нравственные качества, нормы поведения, справедливость и гуманизм как важные факторы общественного прогресса. Цель статьи – проанализировать научно-философское содержание духовно-нравственных ценностей в трудах мыслителей Востока и обосновать их значение в современной системе образования и воспитания.

**Ключевые слова:** духовно-нравственные, ценности, честность, национальные традиции, Абу Наср Фараби, Ибн Сино, Алишер Навои, Джалолиддин Руми, Ахмад Яссави.

## KIRISH

Kundan-kunga shiddat bilan rivojlanayotgan taraqqiyotning hozirgi bosqichida ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni e'zozlash, tarixiy merosni asrash va milliy an'analarni tiklash hamda qadrlash kabi masalalar bilan bog'liq muammolar butun dunyoning e'tibor markazida turibdi. Bugungi kunda inson ma'naviyati va axloqiy kamolotini yuksaltirish masalalariga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Ma'naviy-axloqiy tarbiya – bu insonning ichki dunyosini shakllantirish va uning axloqiy qoidalari, e'tiqodlari hamda qadriyatlariga asoslangan tarbiya jarayonidir. Bu tarbiya nafaqat tashqi xulq-atvorni, balki insonning ichki tuyg'ulari, ehtiroslari, ma'naviy qadr-qimmatini ham shakllantiradi. Ma'naviy va axloqiy tarbiya insonning dunyoqarashini, turmush tarzini, ijtimoiy munosabatlarini va atrofidagi odamlarga bo'lgan munosabatlarini belgilaydi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning asosiy maqsadlari:

- insoniy qadriyatlarni shakllantirish – har bir insonning badiiy va ma'naviy dunyosini rivojlantirish, unga o'zining yuksak axloqiy va ma'naviy mas'uliyatini tushuntirish;
- axloqiy xulq-atvorni tarbiyalash – odamlarni axloqiy jihatdan to'g'ri, ijobiy va jamiyatga foydali xulq-atvorni ko'rsatish va uni amalda qo'llashga o'rgatish;
- ijtimoiy muhitga moslashish – insonga ijtimoiy muhitda to'g'ri va o'rinli xulq-atvorni namoyon etish, jamiyatda o'z o'rnini to'g'ri topish va boshqalar bilan yaxshi munosabat o'rnatish.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sharqda VIII-XII asrlarda qadriyatlar haqidagi qarashlar rivojlanib, bunday qarashlarning shakllanish tarixi xalq og'zaki ijodi, antik davrlar falsafiy dunyoqarashi hamda qadimgi Sharq xalqlarida yaratilgan rivoyatlar, afsonalar, hikoyatlar va masallarning tarixiy genezisiga borib taqaladi. Qadriyatlar tushunchasini o'rganish va tahlil etish barcha zamonlarda dolzarb mavzulardan hisoblangan. Qadriyatlar ichida eng qadrlisi – baxtli yashashimizga zavqimizni keltiradigan, yaxshilik qilishimizga yordam beradiganidir, – degan edi antik davr falsafasining buyuk namoyandalaridan biri Arastu.[1] "Muallimi soniy" nomi bilan Sharqda dong taratgan alloma Abu Nasr Forobiy insonni "ijtimoiy mavjudot" sifatida talqin qilib, uning komillikka erishishida axloqiy fazilatlarning hal qiluvchi o'rin tutishini ta'kidlagan va adolat, saxovat, halollik, ilmga intilish kabi fazilatlarni jamiyat taraqqiyotining negizi deb hisoblagan. Forobiyning fikricha, jamiyatdagi axloqiy-ruhiy muhit shaxsning ma'naviy kamolotiga bevosita ta'sir etadi. U qadriyatlar xususida fikr yuritib, shunday deydi: "...agar bu jarayon birlik-birdamlikni idrok etishiga olib keladigan bo'lsa, u holda turli hayot tarzidagi odamlarni, katta, obro'li oilalarning tabarruk yoshdagi otalar va farzandlarni farog'at keltiradigan qonunlar yaratishga majbur etadi".[2]

Faylasuf va qadriyatshunos olim Q. Nazarovning ilmiy-tadqiqot ishlarida ham qadriyatlar tushunchasining mazmun-mohiyati, strukturasi, asosiy shakllari va paydo bo'lish xususiyatlariga keng to'xtalib o'tilgan holda shunday ta'rif berilgan: "Qadriyat tushunchasi voqelikdagi muayyan hodisalarning umumbashariy, umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma'naviy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llaniladigan falsafiy-sotsiologik va aksiologik tushuncha".[3] Alisher Navoiy kishilarga mehr-muruvvat ko'rsatishga, solih amallarni bajarishga, nafsni tiyishga, kambag'allarga xayr-ehson qilishga, rahmdil va shafqatli bo'lishga, doimo xalq g'amini yeyishga, ular tashvishida yashashga insonlarni da'vat qildi, insoniylik va odamiylikni har narsadan yuqori qo'ydi:

Odamiy ersang demagil odami,
Oniki yo'q xalq g'amidin g'ami.[4]

Hazrat Navoiy o'zining nasriy va nazmiy asarlarida komil inson uchun poydevor bo'lib xizmat qiladigan odamiylikka, insonparvarlikning turli jihatlariga e'tibor beradi. Shoirning ta'kidlashicha, hayotda shunday odamlar borki, ular tashqi tarafdan inson qiyofasida bo'lsa ham, qilgan ishlari, fe'l-atvori insonlarga xos emas. Ularning so'zi bilan ishi turlicha, qilgan ishlari qabihlik va riyokorlikdan boshqa narsa emas. Bunday odamlarni insonlar qatoriga qo'shib bo'lmaydi, ular bilan do'stlashishdan qochish kerak. Ahmad Yassaviy insondagi yomon illatlarni nafs deb biladi va unga qarshi kurash lozimligini uqtiradi. Nafsni tiymaslik, mol-dunyoga hirs qo'yish, ta'magirlik, badnafslik, nokaslik, nodonlik, jaholat va razolatni qattiq qoralaydi. Ahmad Yassaviy hikmatlarining katta bir qismi ayni shu masala talqinlariga bag'ishlangan. Uning ta'rifiga binoan, nafs "yabon qushdek qo'lga qo'nmas" bir narsa. Bu "qush" o'z xohishicha "parvoz" etaversa, odamni kundan-kun to'g'rilikdan ozdiraveradi. Oqibatda esa:

Nafs yo'liga kirgan kishi rasvo bo'lur,
Yo'ldan ozib, toyib to'zib gumroh bo'lur.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash jarayonida Sharq mutafakkirlarining qarashlaridan foydalanishning ilmiy asoslari tadqiq qilindi. Metodologik jihatdan ish falsafiy, pedagogik va tarixiy manbalarni tahlil qilishga tayandi. Asosiy yondashuv sifatida komparativ metod qo'llanilib, Sharq mutafakkirlarining (Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Alisher Navoiy va boshqalar) ma'naviyat va axloqiy tarbiya haqidagi qarashlari zamonaviy pedagogik nazariyalar bilan solishtirildi. Shu bilan birga, kontent-analiz orqali mutafakkirlar asar-

1 Arsatu. Axloqi kabir. – T.: Yangi asr avlodi, 2015.-B.254.
2 Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. - T.: Yangi asr avlodi, 2016.-B.28-29.
3 Nazarov Q. Qadriyat tizimi: barqarorlik va o'zgaruvchanlik dialektikasi (aksiologiyaning ijtimoiy- falsafiy muammolari). Falsafa fanlari doktorini olish bo'yicha dissertasiyasi. T.:1996.-B.105.
4 Alisher Navoiy. Hayratul-abror – T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989. – 155 b

larida tarbiya, odob, insoniy fazilatlar haqidagi g'oyalar ajratib olindi hamda ular maktab ta'limi uchun metodik tavsiyalar shakllantirishda asos sifatida qo'llandi. Empirik darajada o'quvchilar va o'qituvchilar bilan suhbat, kuzatuv va mini-anketalar o'tkazilib, Sharq mutafakkirlarining qarashlarini ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etishning samaradorligi o'rganildi. Statistik tahlil yordamida olingan ma'lumotlar umumlashtirildi va nazariy asoslar bilan bog'landi. Shu tariqa, tadqiqot metodologiyasi nazariy manbalar tahlili, komparativ va empirik usullar uyg'unligiga asoslandi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Butun dunyoga mashhur, buyuk qomusiy olim, Sharq olamida "Shayx ur-rais", G'arb olamida esa "Avitsenna" nomi bilan tanilgan Abu Ali ibn Sinoning qarashlarida ham ta'lim va tarbiya masalasi yuqori o'rinda turgan. Buni allomaning bizgacha qoldirgan ilmiy va ma'naviy merosi orqali bilishimiz mumkin. Uning qarashlarida ta'lim va tarbiya masalasida, avvalo, oilaning o'rni nihoyatda katta ekanligi, xususan, farzand tarbiyasi borasida aqlli onaning zimmasida ekanligi kuzatiladi. Abu Ali ibn Sinoning "Axloq haqidagi risola"sida ko'pgina axloqiy xislatlar qatorida ilm-ma'rifatli bo'lish kabi fazilatlar haqida ham to'xtalib o'tadi. Alloma insonlarni kamolotga yetishishlari uchun avvalo ma'rifatli bo'lishlari lozimligini ta'kidlaydi. Abu Ali ibn Sino asosan yoshlarga ta'lim berishda ularning yoshiga e'tibor berishni, yengildan og'irga qarab harakat qilishni tavsiya qiladi. Uning fikricha, "Yaxshi va yomon xulqning hammasi sharoit, tarbiya, odatlanish natijasida vujudga keladi", shuning uchun ham inson tarbiyali bo'lishi va yaxshi narsalarga odatlanishi zarur.

Buyuk allomalardan biri Jaloliddin Rumiy o'z asarlarida ma'naviy qadriyatlarga oid ilm, tavba, ishq, muhabbat, me'yor, adolat, haqiqat, halollik, nafs, iymon, insof, ustoz-shogirdlik, qo'rquv va e'tiqod kabi mavzularga ko'p o'rinlarda to'xtalib o'tgan. Mutasavvif falsafiy qarashlarida axloqiy qadriyatlarga oid odob, axloq, yolg'onchilik, omonat, mehr-muhabbat, saxiylik, tarbiya, mag'rurlik, munofiqlik, ota-onaga hurmat, oila, rashk, shukr, hasad, vafodorlik, qanoat, yaxshilik va yomonlik masalalarini ham qalamga olgan. Shuningdek, allomaning asarlarida umuminsoniy qadriyatlarga oid tinchlik, do'stlik, mardlik, ogohlik, hushyorlik, hamjihatlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikka oid falsafiy mulohazalarga Rumiy asarlarini o'rganish hamda tadqiq etish jarayonida ko'p o'rinlarda duch kelamiz.

Sharqning muazzam siymolaridan biri bo'lmish Jaloliddin Rumiyning falsafiy qarashlarida ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va axloqiy kamolot masalalari yetakchi mavzulardan hisoblanadi. Allomaning qarashlarida Ishq va Qalb masalasiga alohida to'xtalib o'tilgan. Rumiyning fikricha, borliqni harakatga keltiruvchi kuch bu – muhabbat. Uning ta'kidlashicha, nabotot va hayvonot olami vakillarida ham muhabbat mavjud, biroq ular faqat tanasi va terisi bilan sevishadi. Faqat insongina butun vujudi – jismi, ongi, hayoli va shuuri bilan sevishga qodir.

## XULOSA

Sharq mutafakkirlarining ma'naviy-axloqiy qarashlari insoniyatning bebaho merosi bo'lib, bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Forobiy insonning ijtimoiy mavjudot sifatida axloqiy fazilatlari jamiyat taraqqiyoti uchun poydevor ekanini asoslab berdi. Ibn Sino ilm va axloq uyg'unligi, nafsni tarbiyalash orqali inson kamolotiga erishish g'oyasini ilgari surdi. Navoiy insoniylik, odamiylik, mehr-muruvvat va xalqparvarlikni komil inson mezoni sifatida ulug'ladi. Ahmad Yassaviy esa nafsga qarshi kurash, sabr-toqat va ruhiy poklanish orqali insonni yetuklikka chorlagan. Jaloliddin Rumiy muhabbat, adolat, bag'rikenglik va umuminsoniy qadriyatlarni insoniyatning yagona birlashtiruvchi kuchi sifatida talqin qildi. Ushbu qarashlar zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonida yoshlarni komil inson etib voyaga yetkazishda nazariy asos va amaliy yo'l-yo'riq vazifasini bajaradi. Demak, Sharq mutafakkirlarining ma'naviy-axloqiy merosi nafaqat tarixiy, balki bugungi globallashuv sharoitida milliy o'zlikni anglash, ma'naviy barqarorlikni ta'minlash va yosh avlodni ma'rifatli, axloqan pok shaxs sifatida tarbiyalashda dolzarb metodologik manba hisoblanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Arsatu. Axloqi kabir. – T.: Yangi asr avlodi, 2015. – B.254.
2. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: Yangi asr avlodi, 2016. – B.28-29.
3. Nazarov Q. Qadriyat tizimi: barqarorlik va o'zgaruvchanlik dialektikasi (aksiologiyaning ijtimoiy-falsafiy muammolari). Falsafa fanlari doktorini olish bo'yicha dissertatsiya. – T.: 1996. – B.105.
4. Alisher Navoiy. Hayratul-abror. – T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989. – 155 b.
5. Aliqulov X. Mutafakkirlar axloq va adolat haqida. – T.: Adolat, 1995. – 30 b.
6. Jurayev S.S.U. Abu Ali ibn Sinoning falsafiy qarashlarida axloq masalasi va uning bugungi kundagi ahamiyati. Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences, 2021, 1(3), 11-14.

MAKTAB TA'LIMI SCHOOL EDUCATION ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

| | |
|---|---|
| 13.00.00 | Pedagogika fanlari |
| 13.00.01 | Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi |
| 13.00.02 | Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha) |
| 13.00.03 | Maxsus pedagogika |
| 13.00.04 | Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.05 | Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.06 | Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha) |
| 13.00.07 | Ta'limda menejment |
| 13.00.08 | Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.09 | Ijtimoiy pedagogika |
| 07.00.00 | Tarix fanlari |
| 19.00.00 | Psixologiya fanlari |
| 01.00.00 | Fizika-matematika fanlari |
| 02.00.00 | Kimyo fanlari |
| 03.00.00 | Biologiya fanlari |
| 09.00.00 | Falsafa fanlari |
| 10.00.00 | Filologiya fanlari |
| 11.00.00 | Geografiya fanlari |

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov
**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov
**Musahhih:** Alibek Zokirov
**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

2025. №9

© Materiallar koʻchirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida koʻrsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi boʻyicha roʻyxatdan oʻtkazilgan.
**Litsenziya raqami: № 136361**.

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.